# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik

## 2022- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

# Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik

**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi, %da**




**2020- yil**




**2021- yil**




**2022- yil**

2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi **39,9** %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **15,3** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida **1803** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,3** foizga kam demakdir.

## 2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **646** ta, sanoatda **326** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **266** ta, yashash va ovqatlanishda **143** ta, qurilish **118** ta, tashish va saqlash **64** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

UZSTAT

## 2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, %da

| | |
|---|---|
| Sanoat | 14,2 |
| Qurilish | 83,1 |
| Investitsiya | 63,1 |
| Savdo | 68,1 |
| Xizmatlar | 66,7 |
| Eksport | 23,8 |
| Import | 43,0 |

| | |
|---|---|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 45 079 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 1 803 |

2022- yilning yanvar-martida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

## yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, %da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

## 2022- yil yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar , %da

| Faoliyat turi | % |
|---|---|
| Savdo | 33,1% |
| Sanoat | 20,3% |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 12,5% |
| Qurilish | 8,7% |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 8,4% |
| Tashish va saqlash | 3,8% |
| Axborot va aloqa | 1,4% |
| Sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 1,6% |
| Boshqa faoliyat turlari | 10,2% |




yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

## Hududlar bo‘yicha yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

| Hudud | 2021- y. | 2022- y. | O‘zgarish |
|---|---|---|---|
| Nurafshon sh. | 1 068 | 1 243 | +175 |
| Olmaliq sh. | 1 833 | 1 913 | +80 |
| Angren sh. | 2 281 | 2 517 | +236 |
| Bekobod sh. | 1 265 | 1 405 | +140 |
| Ohangaron sh. | 950 | 1 032 | +82 |
| Chirchiq sh. | 2 253 | 2 549 | +296 |
| Yangiyo‘l sh. | 1 267 | 1 426 | +159 |
| Oqqo‘rg‘on t. | 1 135 | 1 205 | +70 |
| Ohangaron t. | 997 | 1 182 | +185 |
| Bekabod t. | 1 132 | 1 262 | +130 |
| Bo‘stonliq t. | 1 905 | 2 142 | +237 |
| Bo‘ka t. | 1 119 | 1 245 | +126 |
| Quyi Chirchiq t. | 1 365 | 1 414 | +49 |
| Zangiota t. | 4 828 | 5 149 | +321 |
| Yuqori Chirchiq t. | 2 240 | 2 424 | +184 |
| Qibray t. | 3 873 | 4 171 | +298 |
| Parkent t. | 1 978 | 2 147 | +169 |
| Piskent t. | 1 102 | 1 170 | +68 |
| O‘rta Chirchiq t. | 2 259 | 2 488 | +229 |
| Chinoz t. | 1 117 | 1 292 | +175 |
| Yangiyo‘l t. | 2 276 | 2 436 | +160 |
| Toshkent t. | 3 072 | 3 267 | +195 |

■ 2021- y. ■ 2022- y.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Hududlar bo‘yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

| Hudud | 2021 y. yanvar-mart | 2022 y. yanvar-mart |
|---|---|---|
| Nurafshon sh. | 42 | 47 |
| Olmaliq sh. | 67 | 63 |
| Angren sh. | 111 | 90 |
| Bekobod sh. | 77 | 56 |
| Ohangaron sh. | 52 | 27 |
| Chirchiq sh. | 115 | 108 |
| Yangiyo‘l sh. | 78 | 68 |
| Oqqo‘rg‘on t. | 86 | 70 |
| Ohangaron t. | 60 | 47 |
| Bekobod t. | 113 | 77 |
| Bo‘stonliq t. | 140 | 69 |
| Bo‘ka t. | 110 | 67 |
| Quyi Chirchiq t. | 89 | 39 |
| Zangiota t. | 227 | 195 |
| Yuqori Chirchiq t. | 105 | 83 |
| Qibray t. | 222 | 135 |
| Parkent t. | 109 | 79 |
| Piskent t. | 70 | 60 |
| O‘rta Chirchiq t. | 134 | 109 |
| Chinoz t. | 59 | 63 |
| Yangiyo‘l t. | 113 | 89 |
| Toshkent t. | 171 | 135 |

■ 2021 y. yanvar-mart ■ 2022 y. yanvar-mart

## 2022- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, %da

2022- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Zangiota – 10,8 %, Qibray – 7,5 %, Toshkent – 7,5 %, O‘rta Chirchiq –6,0 %, Chirchiq - 6,0 %, Bo‘stonliq – 5,3 %, Angren - 5,0 % hissalariga to‘g‘ri keldi.



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




Ma’lumot uchun: 2022– yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘p salmog‘i, birlikda:

Savdoda

646 ta

Sanoatda

326 ta

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida

266 ta

Yashash va ovqatlanishda

667 ta

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

**2022- yil yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 15,3 birlikni tashkil etdi.**

**Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga ko‘ra***




2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Zangiota tumanida 30,6 birlik, Ohangaron shahrida 25,7 birlik, Qibray tumanida 24,1 birlik, Nurafshon shahrida 23,5 birlik, O‘rta Chirchiq tumani 18,6 birlikni tashkil etgan.

**2022-yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)***



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

**Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil yanvar-mart holatiga ko‘ra***

Eng yuqori ko‘rsatkich
Zangiota tumani – 30,6 birlik.

O‘rtacha ko‘rsatkich
Chirchiq shahri– 15,4 birlik.

Past ko‘rsatkich
Bekabod tumani – 7,8 birlik.

2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Zangiota tumanida 30,6 birlik, Ohangaron shahrida 25,7 birlik, Qibray tumanida 24,1 birlik, Nurafshon shahrida 23,4 birlik, O‘rta Chirchiq tumanida 18,6 birlikni tashkil etgan.

**2022- yilning yanvar-martida har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda ***




** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi






**yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi, %da**

2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi **39,9** %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-martida **43,6** %).

## 2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, %da

| | Sanoat | Qurilish | Savdo | Investitsiya |
|---|---|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | **14,2** | **83,1** | **68,1** | **63,0** |
| Nurafshon sh. | 37,2 | 99,5 | 25,1 | 56,8 |
| Olmaliq sh. | 1,7 | 19,5 | 85,8 | 8,7 |
| Angren sh. | 18,9 | 86,8 | 50,4 | 49,3 |
| Bekobod sh. | 1,7 | 96,9 | 85,5 | 17,8 |
| Ohangaron sh. | 60,4 | 100,0 | 89,4 | 90,8 |
| Chirchiq sh. | 10,8 | 86,0 | 63,3 | 64,6 |
| Yangiyo‘l sh. | 46,8 | 95,7 | 94,8 | 83,0 |
| Oqqo‘rg‘on t. | 42,6 | 100,0 | 98,2 | 89,4 |
| Ohangaron t. | 7,0 | 98,9 | 99,2 | 90,8 |
| Bekobod t. | 48,6 | 100,0 | 92,7 | 67,7 |
| Bo‘stonliq t. | 17,9 | 91,2 | 69,5 | 59,3 |
| Bo‘ka t. | 35,1 | 100,0 | 87,3 | 80,7 |
| Zangiota t. | 22,2 | 100,0 | 43,1 | 55,5 |
| Qibray t. | 15,8 | 81,6 | 86,5 | 89,6 |
| Quyi Chirchiq t. | 53,3 | 86,0 | 96,4 | 95,8 |
| Parkent t. | 99,2 | 100,0 | 97,5 | 68,4 |
| Piskent t. | 31,5 | 100,0 | 90,2 | 46,7 |
| O‘rta Chirchiq t. | 23,9 | 99,9 | 79,5 | 92,8 |
| Chinoz t. | 39,9 | 100,0 | 70,5 | 88,1 |
| Yuqori Chirchiq t. | 56,8 | 95,6 | 91,4 | 79,7 |
| Toshkent t. | 72,2 | 99,9 | 66,3 | 92,6 |
| Yangiyo‘l t. | 34,6 | 95,7 | 89,4 | 64,0 |

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 108,0 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 23,8 %ini tashkil etdi.






yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

**2022- yilnig yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, %da**




2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Parkent (99,9 %), Bekobod (99,9 %), Ohangaron (99,9 %), Quyi Chirchiq (99,7 %), O‘rta Chirchiq (99,7 %), Yuqori Chirchiq (97,9 %), tumanlarida, eng past ko‘rsatkich Olmaliq shahrida 2,0 %ni tashkil qildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **384,9** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **43,0** %ini tashkil etdi.




**yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi**



2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Bekobod (100,0 %), Bo‘ka (100,0 %), Quyi Chirchiq (95,1 %), Chinoz (94,6 %) va Yuqori Chirchiq tumanlarida (93,8 %) kuzatildi. Eng past ko‘rsatkich Bekobod shahrida – 0,3 %ni tashkil etdi.

**2021 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati

**2022- yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2985,9** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Ohangaron shahri (459,6 mlrd. so‘m), Zangiota tumani (342,6 mlrd. so‘m), Toshkent tumani (324,6 mlrd. so‘m), Qibray tumani (212,9 mlrd. so‘m) va Yuqori Chirchiq tumani (202,3 mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keladi. Piskent tumanida (30,5 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




**yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi**

2022- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **14,2** %ni tashkil etdi.

## 2022- yil yanvar-mart holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, %da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Parkent t. (99,2 %), Toshkent t. (72,2 %), Ohangaron sh. (60,4 %), Yuqori Chirchiq t. (56,8 %), Quyi Chirchiq t. (53,3 %), Bekobod t. (48,6 %), Yangiyo‘l shahri (46,8 %) va Chinoz t. tumani (39,9 %) tashkil etdi. Olmaliq shahrida (1,7 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo‘lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




**yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi**

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **4420,3** mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **68,1** %ini tashkil etib. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **1,0** %ga ko‘payishi kuzatildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Zangiota t. (703,1 mlrd. so‘m), Olmaliq sh. (368,3 mlrd. so‘m), Qibray t.(334,0 mlrd. so‘m), Yangiyo’l sh. (299,7 mlrd. so‘m) Bo’stonliq t. (234,0 mlrd. so‘m), Bekabod (213,3 mlrd. so‘m) shaharlarida qayd etildi.

**2022- yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’ati**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1967,2** milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **83,1** %ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **105,0** %ni tashkil qildi.



**yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi**

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Zangiota (259,5 mlrd. so‘m), Qibray (189,5 mlrd. so‘m), Yuqori Chirchiq (159,9 mlrd. so‘m), O‘rta Chirchiq (134,4 mlrd. so‘m) va Toshkent (129,9 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

**2022- yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’ati**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati






**yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi**

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3681,6 mlrd.** so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,7** %ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **108,4** %ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Zangiota tumani 314,9 mlrd. so‘m), Chirchiq shahri – 300,9 mlrd. so‘m, Olmaliq shahri - 268,7 mlrd. so‘m), Qibray tumani – 257,9 mlrd. so‘m, Toshkent tumani – 242,2 mlrd. so‘m, Angren shahri – 226,6 mlrd. so‘m va Yangiyo’l tumani – 202,9 mlrd. so‘m hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2022- yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati**



# 2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko‘rsatkichlari

**2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning ulushi, %da:**




Yuk tashishda




Yuk aylanmasida




Yo‘lovchi tashishda




Yo‘lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 17,0 %ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 102,4 %ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 50,1 %ni tashkil etgan bo‘lib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 99,6 %ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 94,6 %ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 108,1 %ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,9 %ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 103,3 %ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil I chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnomada **1989** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 683 (34,3 %)tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 1135 (57,1%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 171 (8,6%)ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

**2022- yil I chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**






Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 37,5 % (745 ta), xizmatlar sohasida – 27,3 % (543 ta), sanoatda – 20,0 % (398 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 8,4 % (167 ta), qurilishda – 6,8 % (136 ta) ni tashkil etdi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2022- yil I chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Zangiota (245 ta), Qibray (187 ta), Toshkent (153 ta) tumanlari va Chirchiq shahri (139 ta) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2022- yil I chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, % da**



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




**2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2022- yilning I choragida o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi xizmatda – 37,6 %, savdoda 35,0 % ni, sanoat sohasida 32,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi qishloq o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 66,5 % ni, savdoda – 58,1 % ni, qurilish sohasida 56,6 % ni tashkil etdi.

2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig **yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi xizmatda 46,0 % ni, savdoda 43,0 % ni, qurilish sohasida 41,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 57,5 % ni, sanoatda – 53,5 % ni, savdo sohasida 52,8 % ni, qurilishda 50,0 % ni tashkil etdi.

## 2022- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, %da

| | O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar | | |
|---|---|---|---|
| | Ko‘payish (yaxshilanish*) | o‘zgarishsiz | Kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 39,0 | 47,3 | 13,7 |
| Band bo‘lganlar soni | 21,9 | 70,7 | 7,5 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 29,9 | 64,5 | 5,5 |
| Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari | 22,0 | 70,6 | 7,5 |
| Raqobat muhiti* | 30,1 | 4,8 | 65,1 |

| | Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli | | |
|---|---|---|---|
| | Ko‘payish (yaxshilanish*) | o‘zgarishsiz | kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 48,0 | 47,0 | 5,1 |
| Band bo‘lganlar soni | 27,9 | 68,6 | 3,6 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 33,5 | 63,2 | 3,3 |
| Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari | 28,8 | 67,2 | 4,0 |
| Raqobat muhiti* | 34,0 | 62,9 | 3,1 |

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2022- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, %da




## 2022- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, %da

